

“HALOLLIK” UMUMIY MA’NOLI OKKOZIONAL BIRLIKLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATI

Xo‘jayeva Umida Maxmudovna, Navoiy davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti fakulteti “Ingliz tili amaliy kursi” kafedrasi o‘qituvchisi

PRAGMATIC CHARACTERISTICS OF OCCASIONAL UNITS WITH THE GENERAL MEANING OF “HONESTNESS”

Khojaeva Umida Makhmudovna, Teacher of the Department of “Practical English Language Course” Faculty of English Language and Literature Navoi State University

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ОККАЗИОНАЛЬНЫХ ЕДИНИЦ С ОБЩИМ ЗНАЧЕНИЕМ «ЧЕСТНОСТЬ»

Ходжаева Умида Махмудовна, преподаватель кафедры “Практический курс английского языка” факультета английского языка и литературы Навоийского государственного университета

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutqimizda mavjud bo‘lgan “halollik” umumiy ma’noli okkozional birliklarning pragmatik xususiyatlari haqida fikrlar bildirilgan, ular misollar bilan dalillangan. Tilimizdagi turli xil suhbat jarayonlarida qo‘llaniladigan “halollik” konseptiga oid okkozional birliklar va ularning pragmatik strukturasi hamda ma’nolari turli xil adabiy manbalar va tilshunoslarning fikrlarini tahlil qilish orqali tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: okkozional, pragmatika, pragmalingvistka, adabiy til, pragmatik ma’no.

Abstract: This article compares the pragmatic characteristics of occasional expressions associated with “honesty” that exist in our speech and supports its analysis with examples. The pragmatic structure and meanings of various occasional expressions related to the concept of “honesty, as used in different conversational contexts, are analyzed through literary sources and the views of linguists.

Key words: occasional, pragmatics, pragmalinguistics, literary language, pragmatic meaning.

Аннотация: В данной статье сравниваются прагматические характеристики окказиональных выражений, связанных с концепцией «честности», которые существуют в нашей речи, и анализируются примеры их использования. Прагматическая структура и значения различных окказиональных единиц, связанных с концептом «честность», исследуются с опорой на литературные источники и мнения лингвистов.

Ключевые слова: окказиональный, прагматика, прагмалингвистика, литературный язык, прагматическое значение.



<https://orcid.org/0009-0006-7348-3906>

e-mail:
umidaxujayeva@gmail.com

KIRISH. Okkazional birliklarning pragmatik xususiyatlarini tahlil etish tilshunoslikda muhim masalalardan biridir. Okkazional birliklar – bu muallifning ijodiy faoliyati natijasida yoki nutq so‘zlovchining nutq jarayonida ko‘zlangan maqsad va ichki hissiyotlarini to‘liq va aniq nazarda tutgan holda ifoda etish uchun ishlatiladigan, tilning me’yoriy birliklari bilan bir xil bo‘lmagan, o‘ziga xos semantik va stilistik ahamiyatga ega bo‘lgan yangi leksik birikmalardir.

Okkazional birliklarning pragmatik xususiyatlarini tahlil etishga doir bir qancha qo‘llanmalar mavjud bo‘lib, bir qancha tilshunos olimlar bunday lisoniy birliklarga doir chuqur izlanishlar olib borishgan. Shu jumldan, George Yule “Pragmatics” kitobida turli xil tushunchalarni oddiy, tushunarli usulda izohlab bergan va ilmiy asoslar keltirgan. Tilshunos “Pragmatika tilning qanday ishlatilishi, kim tomonidan, qachon va qanday kontekstdagi ma’nolari bilan bog‘liq savollarga javob beradi”, – deya izoh berib o‘tga¹. Tilda mavjud bo‘lgan lisoniy birliklar har doim ham ma’lum va aniq bir ma’no anglatmaydi. So‘zlovchining munosabati va nutq jarayonida anglashiladigan ma’no va maqsadga muvofiq turli xil okkazional birliklar ishlatiladi.

O‘zbek tilshunoslaridan **Sh.Safarov** pragmatika va pragmalingvistikani alohida yo‘nalish sifatida shakllantirishga katta hissa qo‘shgan. Uning fikricha, pragmatika til birliklarining amaliyotdagi funksional qo‘llanilishini o‘rganadigan tilshunoslik yo‘nalishidir. Til birliklarining kontekstda qanday ma’no hosil qilishi va muloqotda qanday samara berishini tahlil qilish bu fanning asosiy maqsadlaridan biridir².

Ingliz tilshunosi Thomas Jenny “Meaning in Interaction: An Introduction to Pragmatics” qo‘llanmasida: “Pragmatika o‘rganadigan asosiy masalalardan biri bu qanday qilib bir xil so‘zlar turli kontekslarda turlicha ma’no anglatishidir”³ deb yozadi. **Pragmatik ma’no** esa til birligi yoki ifodaning muayyan vaziyatda qo‘llanilishi orqali

anglashiladi. U faqatgina lug‘aviy yoki grammatik ma’noni emas, balki gapiruvchi va tinglovchining muloqot davomida yuzaga kelgan emotsiyonal yoki ijtimoiy munosabatlarini ham aks ettiradi. Tilimizda mayjud bo‘lgan lug‘aviy ma’noga ega bo‘lmagan so‘zlar ham suhbat jarayonida turli xil semantik vazifalarini bildirish xususiyatiga ega ekanligi pragmalingvistika tadqiqot ko‘lamini kengayishiga yordam beradi.

O‘zbek olimlari, jumladan, Azamat Pardayev pragmalingvistik tadqiqotlarni kengaytirish zarurligini ta‘kidlaydi. U yordamchi so‘zlar (bog‘lovchilar, yuklamalar)ning lug‘aviy ma’no anglatmasdan, balki kommunikativ jarayonda matnga rang-barang semantik vazifalar qo‘shishini muhim deb biladi⁴. O‘zbek tili turli xil so‘z yasash usullariga ega bo‘lgan boy tillar sirasiga kiradi. Shunday ekan, turli xil nutq jarayonlarida til foydalanuvchilari tomonidan yangidan-yangi birliklar yasalishda davom etaveradi va vujudga kelgan yangi til birliklari tilshunoslarning tadqiqot va izlanishlari obyektlariga aylanadi. Tilimizda “halollik” ma’nosini ifodalashda pragmatik ma’noning ahamiyati juda muhim. “Halollik” konseptini ifodalashda okkazional birliklar pragmatik ma’noni ko‘pincha so‘zlovchining **samimiyy ta’sir hissini ifoda etish uchun ishlatilishi mumkin**. Okkazional birlik “halollik” tushunchasini ifodalash uchun o‘ziga xos emotsiyonal baho berishi mumkin. Masalan, “toza vijdon bilan” okkazional birlik nutqning axloqiy asosiga urg‘u beradi. Ulug‘bek Hamdamning “Yaxshiyam sen borsan” hikoyasidan olingan ushbu jumlani misol tariqasida keltirsak: “Ammo ikkisi ham bir-biriga qo‘ldosh bo‘lib, bunday xavfdan qutulib qoldi va toza vijdon bilan o‘z yo‘llarini topib bordi”. Ushbu jumla orqali yozuvchi qahramonlarning ichki pokligi va halol niyatları sababli o‘z maqsadlariga yetganligini ifodalash maqsadida “toza vijdon bilan” birligini keltirib o‘tgan. Yuqorida berilgan jumlada yozuvchi bir o‘rinda halollik tushunchasini takroran ishlatishdan ochish maqsadida va jumлага yanada hissiy

¹ Yule, George. *Pragmatics*. Oxford: Oxford University Press, 1996.

² Safarov, Sh. *Pragmalingvistika*. Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.

³ Thomas, Jenny. *Meaning in Interaction: An Introduction to Pragmatics*. London: Routledge, 1995.

⁴ Pardayev, A. Pragmalingvistika o‘zbek tilshunoslining alohida yo‘nalishi sifatida. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2022.

bo‘yoq va emotsional ta’sirni oshirish maqsadida yangi bir birlikdan foydalangan. Yana bir okkazional birlik bu “*po‘lat vijdonli*” **birikmasidir va bu birlit halollikka** oid yangi birikma hisoblanib, muallifning subyektiv yondashuvini yoki nuqtayi nazarini ifodalashda ishlatalishi mumkin. “*Po‘lat vijdonli*” ifodasi bir kishining o‘z axloqiy tamoyillariga mustahkam sodiqligini, ichki kuchi orqali o‘z nafsiyi tiya olishi va ma’naviy pokligini anglatadi. Bu metafora insonning ichki himoya qalqoni sifatida tasvirlanib, to‘laqonli halol insonga sifat berganda ishlataladi. Ushbu birlit tilimizda mavjud bo‘lib xalq tomonidan ishlatalib kelinmoqda. “*Po‘lat vijdonli*” birikmasida insonning vijdoni mustahkam bo‘lgan po‘latga qiyoslangan. Shunday qilib, okkazional birliklarning pragmatik ma’nosini ularning yaratilish motivlari, qo‘llanilgan konteksti va muloqotning maqsadi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Yana bir “halollik” tushunchasini ifodalashda qo‘llaniladigan birlit “to‘g‘ri qo‘l” okkazional birligidir. O‘zbek adabiyotida ilk roman hisoblanmish “O‘tkan kunlar”da Abdulla Qodiriy ushbu birikmadan qahramonning axloqiy qiyofasini ifodalash uchun foydalangan. “*U, haqiqatan ham, qo‘li to‘g‘ri inson edi*”, jumlasida ishlatalgan “*qo‘li to‘g‘ri*” birikmasi qahramonning halol, sofdir va boshqalar haqqiga xiyonat qilmaslik kabi axloqiy sifatlarni ifodalash uchun ishlatalgan. Asardan olingan jumla orqali yozuvchi qahramonning nechog‘lik halol inson ekanligini uning boshqalar haqqiga xiyonat qilmasligiga urg‘u bergen holda tasvirlagan. Halollik mavzusi esa ko‘pincha tilshunoslikda emotsional va ma’naviy pragmatik sifatlar bilan boyitiladi. Halollik tushunchasi keng ma’noga ega ekanligi va turli xil insoniy xususiyatlarni o‘z ichiga olganligi sababli, ushbu tushunchani nutq jarayoniga va so‘zlovchining maqsadlarini inobatga olgan holda turli xil yangi va tilimizda avvalda mavjud bo‘lmagan birliliklar imkoniyati mavjuddir.

Ma’lumki, nutq jarayonida suhbat ishtirokchilari o‘z ko‘zlagan maqsad va fikrlarini

ifodalash uchun turli xil birikmalardan foydalanadi. Individlar ba’zida o‘zlarining subyektiv va emotsional fikrlarini bayon etish jarayonida turli xil tilda mavjud bo‘lmagan birikmalar yaratuvchisiga aylanishadi. Shunday ekan, bir so‘z yoki so‘z birikmalari turli nutq jarayonlarida bir xil ma’no anglatmaydi. Bazi bir suhbat jarayonlarida so‘zlar pragmatik yuk bilan boyitiladi va aloqa ta’sir kuchini oshirib yanada aniq qilib beradi. Ammo, har bir nutq jarayonining o‘z qoida va me’yorlari mavjud bo‘lib, til foydalanuvchilari muloqot jarayonida ularga rioya qilishlari zarurdir. H.P.Grice “Logic and Conversation” kitobida ta’kidlab o‘tganidek, suhbat ishtirokchilarining pragmatik muloqot qoidalarga rioya qilishlari haqida quyidagi fikrni aytib o‘tgan: “Muloqotning muvaffaqiyati suhbat ishtirokchilari o‘rtasidagi maxsus qoidalarga rioya qilishga bog‘liq bo‘lib, bular suhbatning kooperativ prinsiplari deb ataladi”⁵. Har bir nutq jarayonida so‘zlovchi va tinglovchi rioya qilishi zarur bo‘lgan suhbat qoidalari mavjuddir. Mavjud qoidalarga rioya qilgan holda suhbat jarayonini tashkil etish muloqotning muvaffaqiyatidir va suhbatning har tomonlama tushunarli bo‘lishini ta’minlab beruvchi omillardan biridir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Grice, H.P. Logic and Conversation. In *Syntax and Semantics*, edited by Peter Cole and Jerry L. Morgan, vol. 3, 41–58. New York: Academic Press, 1975.
2. Pardayev, A. “Pragmalingvistika o‘zbek tilshunosligining alohida yo‘nalishi sifatida. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2022.
3. Safarov, Sh. *Pragmalingvistika*. Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
4. Thomas, Jenny. *Meaning in Interaction: An Introduction to Pragmatics*. London: Routledge, 1995.
5. Yule, George. *Pragmatics*. Oxford: Oxford University Press, 1996.

⁵ Grice, H.P. Logic and Conversation. In *Syntax and Semantics*, edited by Peter Cole and Jerry L.

Morgan, vol. 3, 41–58. New York: Academic Press, 1975.